“Tirilgan murda” yoxud siyosatning adabiyotga ta’siri

Crossref Doi : https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-11

Qudratova Gulnoza Dilshod qizi

ToshDO’TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyot va adabiyotga siyosatning ta’siri, siyosiy jarayonda adabiyotning o’rni, adabiy jarayonning sun’iylikka bo’sundirilishi kabi holatlar G’afur G’ulomning “Tirilgan murda” qissasi asosida tahlil qilingan. Siyosatning adabiy jarayonga ta’siri yuqorida nomi keltirilgan qissa orqali izohlangan.

Kalit so’zlar

Adabiy jarayon, siyosiy jarayon, kollektivlashtirish, quloqlashtirish, “sxematizm”, “holislik prinsipi”, sho’ro davri adabiyoti.

Annotation

In this article, the influence of politics on literature and literature, the role of literature in the political process, the subjection of the literature process to artifiticiality are analyzed based on Gafur Ghulam’s short story “The Resurrected Corpse”. The influence of politics on the literary process is this story interpreted based on.

Key words

Literary process, political process, collectivization, “schematizm”, “the prinsiple of objectivity”, literature of the Soviet era.

Adabiyot – hayot haqidagi ta’limot. Adabiyot chanqoq ruhlarni qondiruvchi, insonning ma’naviy kamolotini o’stiruvchi sinovli hayot savollariga har taraflama javob beruvchi insonni to’g’ri yo’lga yetaklovchi vositadir. Adabiyot insonga so’z orqali ta’sir o’tkazadi. Shuning uchun ham adabiyotning quroli so’zdir. So’z shunday qudratli kuchga egaki, Yaratganning birgina “Bo’l” so’zi bilan butun olam yaralgan. Adabiyot ruhga bog’liq hodisot bo’lganligi uchun, u siyosatdan ko’ra ko’proq insonga ta’sir ko’rsatadi. Bu borada Onore de Balzak “XIX asr fransuz yozuvchilariga maktub” ida: “Fikrni Xudo beradi va u Xudoga qaytadi, fikr qurollardan yuqoriroq turadi, fikr ularning boshiga toj bo’lib qo’nmog’i va ularni tojdan mahrum etmog’i mumkin” deydi.

Shuni ta’kidlab o’tish joizki, adabiyot - insonga bevosita ta’sir etadigan buyuk kuch, shuning uchun ham, har qanday davrda davlat siyosati o’z mafkurasini ommaga targ’ib qilishda adabiyotdan foydalangan. Buni yaxshi anglagan hukmron tabaqalar aynan adabiyotdan o’zlari ko’zlagan siyosatlarini amalga oshirishda foydalanishgan. Aynan mana shu holat esa adabiyotning asl fitratiga daxl qiladi deb o’ylayman. Negaki, adabiyot – sof ruhiy holat mahsuli,

u hayotni boricha, laganbardorliklarsiz, ortiqcha safsatabozliklarsiz, bejirim qochirimlarsiz, sun'iyliklarsiz, haqqoniy tasvirlashi kerak. Haqqoniy tasvirlanmagan tasvir inson qalbini o'ziga tortmaydi. Sun'iy tasvirdan esa o'quvchi tez zerikadi. Bu holatni sun'iy gul va tabiiy gul o'rtasidagi farqqa qiyoslashimiz mumkin. Fikrimizga dalil sifatida turkiyalik siyosatchi Feyzullah Kiyiklikning ushbu ta'rifini keltirib o'tmoqchiman: "Siyosat – bu hukmronlik qilish san'ati. Siyosatchi yozuvchiga ta'sir qila olmaydi, lekin adabiyotshunos asarlari va g'oyalari bilan siyosatchiga ta'sir qilishi mumkin". Shunday ekan, siyosat uchun adabiyotni qurbon qilmaslik darkor. Aynan shu nuqtada adabiyot o'z ohorini yo'qotib sun'iylasha boshlaydi. Chunki adabiyotning eng oliy, asl maqsadi – hayotni haqqoniy aks ettirishdan iborat. Har qanday davrda bo'lmasin, har qanday muhit ichida yashamasin, adibda haqiqatni ko'ra oluvchi qalb va aynan shu haqiqatni boricha holis yoza oladigan qalam bo'lishi lozim. Shuning uchun ham ushbu masala ustida nemis yozuvchisi Genrix Boll : "Siyosiy jarayonda adabiyot ahlining vijdonan harakat qilishi"ni yoqlaydi.

Barchamizga tarixdan ma'lumki, Sobiq Ittifoqning zo'ravon siyosati davrida adabiyot asl ruhini yo'qotib, mafkura quroliga aylantirildi. Adabiyot ahlining sotsializm g'alabasi va uning kelajagi uchun xizmat qilishi kerakligi belgilab qo'yildi. Bu davrda yaratilgan badiiy asarlarning deyarli barchasi siyosiy-mafkuraviy g'oyalarga xizmat qilishi belgilab qo'yildi. Mafkura unsurlari sezilmagan, siyosatga xizmat qilmagan asarlarga cheklov o'rnatila boshlandi. Shu davrda adabiyot o'zining ruhiy hodisot fitratidan, siyosat quroli shakliga kirdi. Xuddi shunday tashqaridan qaraganda, hajviyot shaklida yozilganday tuyiladigan, lekin o'zida siyosiy jarayon mafkurasini tashigan asar G'afur G'ulomning "Tirilgan murda" qissasi edi. Qissa bosh qahramoni yalqov Mamajon, bir so'z bilan aytganda, yashashga ham erinadigan bir kimsa. G'afur G'ulom mahorati bilan Mamajonning yalqovligi shunday tasvirlanadi: "Ovqatdan uncha noliydigan emas, boyning ichkarisidan sarqit, yuvindi va boshqalar chiqib turadi. Faqat mendan Olapargina xafa. U o'zining nasibasiga sherik topilib qolgani uchun ba'zida irillab qo'yadi". Mana shu tasvirning o'zida o'quvchi asar qahramonining hattoki olapar itning ham ovqatidan ta'b tortmaydigan "odam" ekanligini tasvirlaydi. Voqealar rivojida shu yalqov tebsa tebranmas kimsaga qanday holat bunchalik ta'sir etdiki, u hatto kolxoz brigadri lavozimigacha ko'tarildi. Ushbu savolga biz qissani mutolaa qilish jarayonida javob topamiz. G'afur G'ulom bunga kolxozlashtirish siyosatini sabab qilib ko'rsatadi. Ayni shu nuqtada sun'iylik bordek tuyiladi, sababi aslida ham shunaqamidi? Bu haqida bizga tarix guvohlik beradi.

Kolxoz – SSSRda mavjud bo'lgan qishloq xo'jaligi ishchilar uyushmasining sotsialistik shakli. Sovxozlar bilan birga kolxoz sovet iqtisodida katta ro'l o'ynagan. Ma'lumki, sovet hukumatining qishloq xo'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish va "quloqlashtirish sinf sifatida tugatish" siyosati boshlang'ich davrdanoq zo'ravonlik bilan amalga oshirila boshlangan. Kollektivlashtirish harakati bolsheviklar hukumatiga xos bo'lgan "inqilobiy" shiddat bilan xalq ommasiga nisbatan zo'rlik va qatag'on usullarini keng qo'llagan holda o'tkazilgan. O'zbekistonda sovetlar hukumati tomonidan amalga oshirilgan qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish va quloqlashtirish siyosati boshlang'ich davrdanoq qishloq aholisiga nisbatan zo'ravonlik qilish vositasida olib borildi. Dehqonlarni kolxozlarga majburan kiritish uchun ularga nisbatan zo'ravonlik va qatag'onlarning turli vositalari ishga solindi. Sovet hukumati

kollektivlashtirishni amalga oshirishda "sinfiy kurash" degan aqidani ishga solib, o'ziga to'q va tadbirkor dehqonlar qatlamiga nisbatan urush e'lon qildi. Bu xo'jaliklar turli usul va vositalar bilan siquvga olindi. Kollektivlashtirishda norozilik bildirganlar, mol-mulkini kolxozga topshirishni istamaganlar, xo'jalik boshliqlari, "aksilinqilobiy faol quloqlar" sifatida ta'qibga olindi. Jazo organlari tomonidan qo'lga olingan bunday kishilarning aksariyati sudsiz, tergovsiz otib tashlandi. Qolgan qismi esa uzoq muddatga qamoqqa tashlandi. Bu haqida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Mustabid tuzum davrida minglab begunoh vatandoshlarimizning umri xazon bo'lgan. 1937-1953-yillarda O'zbekistonda 100 minglab odam qatag'onga uchragan. Ularning 13 ming nafari shafqatsiz otib tashlangan. Qanchadan qancha oilalar xonavayron bo'ldi, bolalar yetim qolgan. Birgina, 1937-1938-yillardagi katta qatag'on davrida 7 mingga yaqin vatandoshimiz otilganligi so'zimizning yaqqol isbotidir"

Biz tadqiqini o'rganayotgan "Tirilgan murda" qissasida esa ana shu qonli siyosat, kolxozlashtirish siyosati ideallashtirib ko'rsatilgan. Yashashdan maqsadi bo'lmagan, yeb-yotishdan boshqa ishi yo'q, yeb-yotish uyoqda tursin hatto kiprik qoqishga ham erinadigan yalqov Mamajonni kolxoz hayoti tuppa-tuzuk ishbilarmon, oilaparvar yigitga aylantirib qo'ysa-ya... Hech vaqosiz Mamajon kolxozda kolxozda ishlashi orqasidan uy soladi, uylanadi, hattoki, kolxoz brigadri lavozimigacha ko'tariladi. Savodli bo'lib o'ish yozishn o'rganishiga ham kolxoz sababchi ekanligi qalamga olinadi. Asar quyidagi parcha bilan yakunlanadi: *"...Shu kolxozlar ichida Lenin nomidagi bir kolxoz ham bor ekan. Bunda rais bo'lib Sattorqul aka, brigadir bo'lib Mamajon Mahamadali o'g'li turar ekan. Mamajon aka bo'lsa, butun sovet ko'pchiligi va partiya jamoatchiligi oldida boshqa kolxozlarni musobaqaga chaqirib, bu yilgi planni yuz ellik protsent bajarishga bolshevik so'zini bergan ekan.*

Mamajon va'dasida turadi."

Asarda kolxozlashtirish siyosati rangdor bo'yoqlarda chizilgan. Kolxozlashtirish va kollektivlashtirish siyosati haqida asl tarixiy haqiqat qanday bo'lganligini esa biz yuqoridagi o'rinlarda fikrlashgandik. Bu qissadagi syujetni tarixiy haqiqat bilan paralel taqqoslaydigan bo'lsak, adabiyotni haqiqatni kuylovchi, haqqoniylik prinsipiga zid borilganligi ko'ramiz. Adib nega bu yo'ldan bordi?! Balki, vaziyat taqozosidir, sho'ro siyosatining qalamkashlarga ta'siri sabablidir, ammo har nima bo'lganda ham haqqoniylik va holislik prinsipiga zid qo'yilgan har qanday asar faqat bir o'qihli, insonning hissiy olamiga ta'sir ko'rsatmaydigan, mutolaachini zerikarli olamga olib kiradi. Sxematik qoliplarga asoslanganlik esa badiiy asarning sho'ro davridagi asl fojialaridan biri edi.

Ijodkor o'zi yashaydigan davrni, ijtimoiy hayotni ozmi-ko'pmi o'z asarlarida aks ettiradi. Shunday bo'lishiga qaramay, ijodkorning mafkuraga munosabati erkin bo'lmog'i lozim. Mafkura ta'sirida yozilgan asarlarda erkinlik cheklanadi. Erkinligi bo'g'ib qo'yilgan badiiy asarlardan esa badiiylik yo'qoladi. Har bir badiiy asar yaratilayotganda ijodkor shaxsiyati va ijtimoiylik uyg'un holda bo'lishi kerak. Chunki ijodkor shaxsi ijtimoiylikka singib yo'qolsa, ijodiylik yo'qoladi. Bunday holda badiiy hodisa mahsuli bo'lgan ijod ham yo'qoladi. Ushbu jarayonda yozuvchi voqelikni tayyor qoliplar asosida ko'radi, shu qoliplar asosida tasvirlaydi,

vaziyatga shu qoliplar asosida baho beradi. Bu holat esa sxematizmni yuzaga chiqaradi. Maxsus “sxema” qoliplarga moslashtirilgan asarni hozirgi rivojlanayotgan zamonda kompyuterlar ham yoza oladi. O’tgan asrda

Sho’ro davri adabiyotining asl fojiasi ham ana shunda edi. Asrlar davomida ijod ahli turli hukmron doiralarning ta’siriyu tazyiqidan qutulolgan emas.

Adabiy jarayon mutlaq erkin holat bo’lib, uni maxsus qoliplarga solishga urunish, mafkuraga bo’ysundirish, ijtimoiy-tarixiy sharoitga moslashga urunish asarning asl sof fitratiga dahl qiladi. Ijtimoiy- tarixiy sharoit munosabati asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, qaysi davr shaxsga (ayniqsa, ijodkor shaxsiga) erkin fikrlash uchun imkon bersa, o’sha davrda adabiyotda falsafiylik keng miqyos kasb etadi.

Chin iste’dod hech qachon erkinliksiz yashay olmaydi, faqat iste’dodsizlargina erkinliksiz ham gullab yashnashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ғафур Ғулом. Мукаммал асарлар туплами.Тошкент.1986

2.Umarali Normatov.Ijod sehri.

3.Quronov.D., Z.,Sheraliyeva M.,Adabiyotshunoslik lug’ati.Toshkent: 2010

WORDLY KNOWLEDGE